

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 11 | **pp.** 25-33 | **ISSN**: 2181-1865
Available online https://finance.tsue.uz/index.php/afa

MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR HISOBI NAZARIY YONDASHUVLARINING EVOLYUTSIYASI: TASNIF, BAHOLASH, QADRSIZLANISH VA XEJIRLASH KONSEPSIYALARI

Shanasirova Nodira Abdullayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: n.shanasirova@tsue.uz; ORCID: 0000-0003-2158-8395

Annotatsiya. *Maqolada moliyaviy instrumentlar hisobi nazariy yondashuvlarining 1975–2025-yillardagi evolyutsiyasi tasnif, baholash, qadrsizlanish, xejirlash va ochib berish konsepsiyalari kesimida tizimlashtirilgan. To'rt bosqich ajratilib, IAS 39 va IFRS 9 milliy standartlar bilan solishtirilgan. Milliy hisob konturi I–II, MHXS hisoboti talablari IV bosqich darajasida ekani asoslangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi aksiyadorlik jamiyatlari uchun IFRS 9 ning uchta ustunini yagona tizim sifatida qo'llashning beshta uslubiy tamoyili taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *moliyaviy instrumentlar, hisob nazariyasi evolyutsiyasi, IFRS 9, biznes-model, kutilayotgan kredit zararlari, xejirlash hisobi.*

Аннотация. *В статье систематизирована эволюция теоретических подходов к учёту финансовых инструментов в 1975–2025 гг. в разрезе концепций классификации, оценки, обесценения, хеджирования и раскрытия информации. Выделены четыре этапа, модели IAS 39 и IFRS 9 сопоставлены с национальными стандартами. Обосновано, что национальный учётный контур соответствует I–II этапам, а требования к отчётности по МСФО – IV этапу. Для акционерных обществ сферы ИКТ предложены пять методологических принципов применения трёх столпов IFRS 9 как единой системы.*

Ключевые слова: *финансовые инструменты, эволюция теории учёта, IFRS 9, бизнес-модель, ожидаемые кредитные убытки, учёт хеджирования.*

Annotation. *The article systematises the 1975–2025 evolution of theoretical approaches to accounting for financial instruments across the concepts of classification, measurement, impairment, hedging and disclosure. Four stages are identified, and the IAS 39 and IFRS 9 models are compared with national standards. The national accounting contour is shown to match stages I–II, and IFRS reporting requirements stage IV. Five methodological principles are proposed for applying the three pillars of IFRS 9 as a single system in ICT joint-stock companies.*

Keywords: *financial instruments, evolution of accounting theory, IFRS 9, business model, expected credit losses, hedge accounting.*

Kirish. Buxgalteriya hisobi nazariyasida moliyaviy instrumentlar hisobichalik tez yangilangan soha kam topiladi: uning rivojini moliyaviy bozorlarning murakkablashuvi, xalqaro uyg'unlashtirish va 2008-yilgi moliyaviy inqiroz saboqlari belgilab berdi. Jarayon

davom etmoqda: IFRS 9 «Moliyaviy instrumentlar» standartiga tasnif va baholash bo‘yicha kiritilgan tuzatishlar 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirdi[1], Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi (IASB) foiz stavkasi riskini boshqarishning yangi hisob modelini muhokamaga qo‘ydi[2]. O‘zbekistonda MHXS majburiyati 2025-yil 17-dekabrdan jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar (JAET) reyestri orqali belgilanadi[3, 5-, 12- va 14-bandlar]: birinchi reyestrga kiritilgan 425 ta tashkilot 2027-yil 1-yanvardan hisobni MHXS asosida yuritishi kerak[4].

Shu bilan birga, 12-son BHMSda samarali foiz stavkasi usuli belgilanmagan, milliy standartlarda kutilayotgan kredit zararlari va xejirlash hisobi esa nazarda tutilmagan[5, 6] – korxonada turli nazariy asoslarga tayangan ikki hisob konturi yonma-yon ishlaydi. Maqsad – moliyaviy instrumentlar hisobi nazariy yondashuvlarining evolyutsiyasini tasnif, baholash, qadrsizlanish va xejirlash konsepsiyalari kesimida tizimlashtirish, milliy tizimning undagi o‘rnini aniqlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasi aksiyadorlik jamiyatlari uchun IFRS 9 ni yagona tizim sifatida qo‘llash tamoyillarini asoslash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inqirozdan keyingi tadqiqotlarda Barth va Landsman haqqoniy qiymat bo‘yicha hisob inqirozda deyarli rol o‘ynamaganini, sekyuritizatsiya va hosilalar bo‘yicha axborot shaffofligi esa yetarli bo‘lmaganini ko‘rsatgan[7]. Gebhardt va Novotny-Farkas IAS 39 ning yuzaga kelgan zarar cheklovi daromadni tekislashni kamaytirganini, lekin kredit zararlari kechiktirib tan olinganini aniqlagan[8]. Hashim va hammualliflar IASB va FASB loyihalarida konvergensiya amalga oshmagani sababli kutilayotgan zararning ikkita modeli shakllanganini[9], Novotny-Farkas IFRS 9 zahiralarni ertaroq va kattaroq hajmda tan olishini ko‘rsatgan[10]. Leisenring va hammualliflar biznes-model mezonini niyatga asoslangan hisob shakli sifatida tahlil qilgan[11], Fiechter Yevropa banklarining qariyb uchdan biri 2008-yilgi qayta tasnif imkoniyatidan keng foydalanib, haqqoniy qiymat zararlaridan qochganini aniqlagan[12], Glaum va Klöcker esa xejirlash hisobini qo‘llovchi kompaniyalarning yarmidan ko‘pida hisob qoidalari xejirlash qarorlariga ta’sir etishini ko‘rsatgan[13]. Milliy adabiyotda Maxmudov moliyaviy instrumentlar hisobi va auditini qimmatli qog‘ozlar doirasida[14], Kenjebayeva aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy aktivlari turlari va tasniflash shartlarini[15], Xolpo‘lotov moliyaviy instrumentlarni hisobotlarda aks ettirishni[16] tadqiq etgan. To‘rt konsepsiya evolyutsiyasini yagona davrlashtirish asosida ko‘rib, milliy tizimning undagi o‘rnini aniqlagan ish esa ko‘rib chiqilgan manbalarda uchramadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-mantiqiy yondashuv, qiyosiy tahlil va hujjatlar kontent-tahlili qo‘llanildi. Axborot bazasi – FASB va IASC/IASB ning 1975–2025-yillardagi standartlari, loyihalari va joriy etilgandan keyingi tahlil (post-implementation review – PIR) hujjatlari, G20 va Moliyaviy inqiroz bo‘yicha maslahat guruhi (FCAG) hujjatlari, O‘zbekiston me’yoriy-huquqiy hujjatlari. Davrlashtirish to‘rt mezonga – ustun baholash asosi, qadrsizlanish modeli, xejirlashga yondashuv va ochib berish qamroviga tayandi; milliy tizimning o‘rni 12-son va 21-son BHMSni shu mezonlar bo‘yicha IAS 39 va IFRS 9 bilan solishtirib aniqlandi. Tamoyillarning amaldagi ta’siri empirik baholanmadi.

Tahlil va natijalar. Moliyaviy instrumentlar hisobi metodologiyasining evolyutsiyasini to‘rt bosqichga ajratish mumkin (1-jadval). Birinchi bosqich (1975–1992-yillar) tannarx konsepsiyasiga tayandi: SFAS 12 bozorda sotiladigan ulushli qimmatli qog‘ozlarni tannarx va bozor qiymatining eng kichigi bo‘yicha baholashni belgiladi[17], hosilalar balansdan tashqarida qoldi. Ikkinchi bosqichda (1993–2007-yillar) aralash baholash modeli shakllandi: SFAS 115 va SFAS 133 haqqoniy qiymatni qimmatli qog‘ozlar va hosilalarga tatbiq etdi[18, 19], Xalqaro buxgalteriya standartlari qo‘mitasi (IASC) 1995-yilda IAS 32 ni[20], 1998-yilda niyatga asoslangan to‘rt kategoriya, yuzaga kelgan zarar modeli va xejirlashning qat’iy shartlariga tayangan IAS 39 ni qabul qildi[21]; 2005-yilda IFRS 7 risklarni ochib berishni barcha subyektlar uchun birxillashtirdi[22].

Uchinchi bosqich (2008–2017-yillar) inqiroz bilan boshlandi: IASB IAS 39 ni o‘zgartirib, moliyaviy aktivlarni istisno holatlarda qayta tasniflashga ruxsat berdi[23], G20 moliyaviy instrumentlar standartlarini soddalashtirish va kredit zararlari zahiralarini kengroq kredit axboroti asosida tan olishni talab qildi[24, 6-b.], FCAG esa yuzaga kelgan zarar modeli zararlarni kechiktirib tan olishini qayd etib, istiqbolga yo‘naltirilgan muqobil modellarni o‘rganishni tavsiya qildi[25, 5- va 8-b.]. IFRS 13 haqqoniy qiymatni baholashning yagona asosini yaratdi[26], bosqichma-bosqich ishlab chiqilgan IFRS 9 2018-yil 1-yanvardan kuchga kirdi[27, 7.1.1-band]. To‘rtinchi bosqich (2018-yildan) – joriy etish, PIR va tuzatishlar davri: PIRlar talablar mo‘ljallanganidek ishlayotganini tasdiqladi; ESG shartlari va elektron to‘lovlarga oid aniqlashtirishlar 2024-yilgi tuzatishlarga kiritildi[1, 28], modifikatsiya, tan olishni to‘xtatish, hisobdan chiqarish va kredit riski ochib berilishi esa keyingi loyihalarga o‘tkazildi[29]. O‘zbekistonda tuzatishlar tan olingandan keyin qo‘llanadi: IFRS 9 ning yangilangan matni 2026-yil martda tan olindi[30].

1-jadval

Moliyaviy instrumentlar hisobi metodologiyasi evolyutsiyasining bosqichlari

Bosqich, davr	Asosiy hujjatlar	Tasnif va baholash	Qadrsizlanish	Xejirlash, ochib berish
I. Tannarx (1975–1992)	SFAS 12 (1975)	Tannarx; ulushli qog‘ozlar – tannarx va bozor qiymatining eng kichigi	«Ishonchsiz qarzlar» zahirasi, rahbariyat mulohazasi	Hosilalar balansdan tashqarida; ochib berish tor
II. Aralash baholash (1993–2007)	SFAS 115, IAS 32, SFAS 133, IAS 39, IFRS 7	Niyatga asoslangan to‘rt kategoriya; hosilalar haqqoniy qiymatda	Yuzaga kelgan zarar: obyektiv dalil talabi	80–125 % samaradorlik testi; risklar rahbariyat axboroti asosida
III. Kutilayotgan zarar va biznes-model (2008–2017)	IAS 39 tuzatishi, G20, FCAG, IFRS 13, IFRS 9	Biznes-model va SPPI-test; haqqoniy qiymatning yagona ta’rifi	Uch bosqichli kutilayotgan zarar; soddalashtirilgan yondashuv	Risk boshqaruviga moslik; kredit riski va ECL ochib berilishi

Bosqich, davr	Asosiy hujjatlar	Tasnif va baholash	Qadrsizlanish	Xejirlash, ochib berish
IV. Joriy etish va tuzatishlar (2018-yildan)	IFRS 9 kuchga kirishi, PIR (2022, 2024), tuzatishlar, ED/2025/1	SPPI-testni aniqlashtirish (ESG shartlari), elektron to‘lovlar	Modifikatsiya va hisobdan chiqarishni aniqlashtirish	Foiz stavkasi riskini dinamik boshqarish modeli (loyiha)

Manba: muallif ishlanmasi [2, 17–29] asosida. SPPI – shartnomaviy pul oqimlari faqat asosiy qarz va foiz to‘lovlaridan iboratligi testi; ECL – kutilayotgan kredit zararlari.

Tasnif evolyutsiyasi «rahbariyat niyati»dan «biznes-model»ga o‘tish bilan tavsiflanadi (2-jadval). IAS 39 da kategoriya subyekt niyatiga bog‘liq, niyatni tekshirish imkoniyati cheklangan edi[11]; 2008-yilgi tuzatish bu modelning inqirozdagi beqarorligini ko‘rsatdi[12]. IFRS 9 tasnifni faktik biznes-model va shartnomaviy pul oqimlari xususiyatiga asoslab[27, 4.1.1-band], qayta tasnifni faqat biznes-model o‘zgarganda ruxsat etdi[27, 4.4.1-band]. Baholash konsepsiyasi aralash modelga va haqqoniy qiymatning yagona ta’rifiga qarab rivojlandi: Konseptual asoslar tarixiy va joriy qiymatni ajratadi[31, 6.4- va 6.11-bandlar], IFRS 13 haqqoniy qiymatni chiqish narxi sifatida ta’riflab, uch darajali iyerarxiyani belgilaydi[26, 9- va 72–90-bandlar]. Barcha moliyaviy instrumentlarni haqqoniy qiymatda baholash taklifi (2000) standartga aylanmadi[32]; IFRS 9 ning biznes-model mezonini tannarx va to‘liq haqqoniy qiymat o‘rtasidagi murosa sifatida talqin qilish mumkin: pul oqimlarini yig‘ib olish uchun ushlab turiladigan instrumentga amortizatsiyalangan qiymat, sotish orqali qiymat yaratuvchi instrumentga haqqoniy qiymat mos keladi. Demak, IFRS 9 da tasnif – baholash asosini tanlash.

2-jadval

IAS 39, IFRS 9 va milliy standartlardagi yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Aspekt	IAS 39 (II bosqich)	IFRS 9 (III–IV bosqich)	12-son va 21-son BHMS
1. Tasnif asosi	Niyat: FZHQ, muddatgacha ushlab turiladigan, qarzlar va debitorlik, sotish uchun mavjud (9)	Biznes-model va SPPI-test: amortizatsiyalangan qiymat, BUDHQ, FZHQ (4.1.1–4.1.4)	Muddat va tur: qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar, qimmatli qog‘ozlar, qarzlar (I–II)
2. Qayta tasnif	«Ifloslanish» qoidasi (9); 2008-yilgi istisno tuzatishi	Faqat biznes-model o‘zgarganda (4.4.1)	Tartibga solinmagan
3. Keyingi baholash	Samarali stavka yoki haqqoniy qiymat; sotish uchun mavjud aktivlar – kapitalda (46, 55)	Samarali stavka yoki haqqoniy qiymat; ulushli instrumentlar uchun BUDHQ tanlovi (5.7.5)	Xarid qiymati; diskont va mukofot «barqaror daromad» bo‘yicha; bozor qiymati yoki eng kichigi (I–II)

Aspekt	IAS 39 (II bosqich)	IFRS 9 (III–IV bosqich)	12-son va 21-son BHMS
4. Qadrsizlanish	Yuzaga kelgan zarar, obyektiv dalil (58–59)	Kutilayotgan zarar: uch bosqich, soddalashtirilgan yondashuv (5.5)	4910-hisobvaraqdagi rezerv, o‘lchash qoidasisiz (I)
5. Xejirlash	Qoidaviy: 80–125 % testi (88, AG105)	Prinsipial: risk boshqaruvi maqsadiga moslik (6.1.1, 6.4.1)	Mavjud emas
6. Ochib berish	IFRS 7: risklar rahbariyat axboroti asosida (33–34)	Kredit riski va ECL bloki (IFRS 7, 35A–35N)	Umumiy izohlar; risklar ochib berilmaydi (I–II)

Manba: muallif ishlanmasi [5, 6, 21, 22, 27] asosida; qavslarda – bandlar va bosqich. FZHQ (BUDHQ) – foyda yoki zarar (boshqa umumlashgan daromad) orqali haqqoniy qiymat.

Milliy tizimda (2-jadvalning so‘nggi ustuni) tasnif muddat va tur bo‘yicha yuritiladi; 12-son BHMS investitsiyalarni xarid qiymatida baholab, diskont va mukofotni «barqaror daromad» ta’minlanadigan tarzda hisobdan chiqarishni talab qiladi, lekin hisoblash usulini belgilamaydi[5, 9- va 12-bandlar]; qadrsizlanish 4910-hisobvaraqdagi rezerv orqali o‘lchash qoidasisiz hisobga olinadi[6]; xejirlash hisobi yo‘q. Demak, milliy hisob konturi I–II bosqich, JAETlar uchun MHXS hisoboti talablari esa IV bosqich darajasida. Bu «bosqichlar uzilishi» kutilayotgan kredit zararlari, samarali stavka va imtiyozli qarzlar bo‘yicha «birinchi kun» farqining hisobda aks etmasligiga yoki yil oxirida asossiz transformatsiya qilinishiga olib keladi.

Qadrsizlanish konsepsiyasi eng chuqur o‘zgarishni boshdan kechirdi. IAS 39 qadrsizlanishni faqat obyektiv dalil – zarar hodisasi mavjud bo‘lganda tan olar edi[21, 58–59-bandlar], shu bois inqirozda zararlar kechiktirib tan olindi[8, 25]. Kutilayotgan zarar konsepsiyasiga o‘tish 2009- va 2013-yillardagi muhokama loyihalari orqali bordi[33, 34]. IFRS 9 da kredit riski sezilarli oshmaganda 12 oylik, oshganda butun muddatlik kutilayotgan zarar tan olinadi[27, 5.5.3- va 5.5.5-bandlar]; baho ehtimollik bo‘yicha tortilgan, pulning vaqt qiymatini hisobga olgan va asosli axborotga tayangan bo‘lishi kerak[27, 5.5.17-band], 30 kunlik (risk sezilarli oshgani) va 90 kunlik (defolt) rad etiladigan prezumpsiyalar amal qiladi[27, 5.5.11- va B5.5.37-bandlar]. FASB esa CECL modelida dastlabki tan olishdan butun muddatlik zararni talab qildi[35]. Model 2018-yilda Konseptual asoslarga qaytarilgan ehtiyotkorlik tamoyili bilan uyg‘un[31, 2.16-band], uning narxi esa zahiraning taxminlarga bog‘liqligi. Real sektor korxonasi uchun savdo debitorligi va shartnoma aktivlari bo‘yicha soddalashtirilgan yondashuv[27, 5.5.15-band] va zahira matritsasi[27, B5.5.35-band] nazarda tutilgan, biroq tarixiy zarar stavkalarini hisoblash, istiqbol tuzatishlarini tortish va kalibrlash usullari belgilanmagan.

Xejirlash hisobi iqtisodiy xej bilan hisob natijasi o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishga qaratilgan. IAS 39 xejirlashning uch turini va 80–125 foiz samaradorlik oralig‘ini belgilagan[21, 86-, 88- va AG105-bandlar]. IFRS 9 maqsadni risk boshqaruvi faoliyatining hisobotdagi ta’sirini aks ettirish deb belgilab[27, 6.1.1-band], miqdoriy chegara o‘rniga iqtisodiy bog‘liqlik, kredit riski ta’sirining ustun bo‘lmasligi va xejirlash koeffitsiyenti

mezonlarini kiritdi[27, 6.4.1-band]; valyuta riskida hosila bo‘lmagan moliyaviy aktiv yoki majburiyatning valyuta komponenti ham xejirlash instrumenti bo‘lishi mumkin[27, 6.2.2-band]. AKT sohasi uchun bu amaliy masala: «O‘zbektelekom» AK qarzining qariyb 94 foizi xorijiy valyutada, daromadi esa so‘mda, xejirlash qo‘llanilmaydi[36]. Shu bois birinchi qadam – valyuta riskini boshqarish axboroti, keyingisi – prognoz valyuta to‘lovlarining pul oqimlari xejiga tayyorgarlik.

Tahlil IFRS 9 ning uchta ustuni – tasnif va baholash, qadrsizlanish, xejirlash – yagona tizim ekanini ko‘rsatadi: birinchi ustun baholash kategoriyasi va samarali stavkani belgilaydi, ikkinchisi shu stavkadan diskontlashda foydalanadi[27, B5.5.44-band], uchinchisi instrumentni xejirlanadigan obyekt bilan bog‘laydi; IAS 32 bo‘yicha taqdim etish hamda IFRS 7 va IFRS 13 bo‘yicha ochib berish birlashtiruvchi qatlamdir. Shu sababli tasnif xatosi qadrsizlanish va ochib berish xatosiga, samarali stavka xatosi ECL xatosiga aylanadi. Bundan beshta uslubiy tamoyil kelib chiqadi: 1) birlik – barcha qarorlar yagona hisob siyosati va ma’lumotlar bazasida qabul qilinadi; 2) ketma-ketlik – tasnif baholashdan, baholash qadrsizlanishdan oldin keladi; 3) obyektivlik – har bir mulohaza hujjatlashtirilgan, tekshiriluvchan dalilga asoslanadi; 4) mutanosiblik – standartdagi soddalashtirishlar (soddalashtirilgan yondashuv, zahira matritsasi, xejirlash hisobini ixtiyoriy qo‘llash) korxonaning murakkablik darajasiga mos qo‘llanadi; 5) milliy moslik – IFRS 9 natijalari 21-son BHMS doirasidagi ishchi hisobvaraqlarda aks ettiriladi, transformatsiya tuzatishlari istisno bo‘lib qoladi.

Xulosa va takliflar. 1. Moliyaviy instrumentlar hisobi metodologiyasi to‘rt bosqichni bosib o‘tdi; ular ustun baholash asosi, qadrsizlanish modeli, xejirlashga yondashuv va ochib berish qamrovi bilan farqlanadi.

2. Evolyutsiyaning asosiy yo‘nalishi – rahbariyat niyatidan obyektiv mezonlarga va yuzaga kelgan zarardan istiqbolga yo‘naltirilgan bahoga o‘tish; bu hisobni taxminlarga bog‘lab, audit va ichki nazoratga talabni oshiradi.

3. Milliy hisob konturi I–II, JAETlar uchun MHXS hisoboti talablari IV bosqich darajasida; uzilishni transformatsiya tuzatishlari emas, hisobdagi yechimlar bartaraf etishi kerak.

4. Takliflar: buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to‘g‘risidagi yangi qonun[3, 10-band] hamda 12-son va 21-son BHMSning yangi tahririda amortizatsiyalangan qiymat va samarali stavka usuli, kutilayotgan kredit zararlari rezervi va IFRS 9 kategoriyalari uchun ishchi hisobvaraqlarni nazarda tutish; korxonalar hisob siyosatida biznes-model, zahira matritsasi va valyuta riski axborotini hujjatlashtirish; beshta tamoyilni AKT sohasi aksiyadorlik jamiyatlarida hisob siyosati va ichki nazoratni loyihalashda sifat mezoni sifatida qo‘llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. IFRS Foundation. Amendments to the Classification and Measurement of Financial Instruments (Amendments to IFRS 9 and IFRS 7). – London, May 2024.

2. IFRS Foundation. Exposure Draft ED/2025/1 Risk Mitigation Accounting: Proposed Amendments to IFRS 9 and IFRS 7. – London, December 2025.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi «Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida»gi PQ-282-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.09.2025 y., 07/25/282/0828-son. – URL: https://lex.uz/docs/7728924 .

4. O‘zbekistonda 425 ta tashkilot jamoat ahamiyatiga ega kompaniya deb e’tirof etildi. Ro‘yxat // Gazeta.uz. – 2026. – 26-iyun. – URL: https://www.gazeta.uz/uz/2026/06/26/public-interest-entities/ .

5. 12-son BHMS «Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish»: O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 14.06.2024 y. 138-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 18.07.2024 y. 3531-son bilan ro‘yxatga olingan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.07.2024 y., 10/24/3531/0528-son. – URL: https://lex.uz/docs/7025356 .

6. 21-son BHMS «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma»: O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 14.11.2024 y. 191-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 27.12.2024 y. 3593-son bilan ro‘yxatga olingan; 26.08.2025 y. 282-son va 04.03.2026 y. 336-son buyruqlar tahririda) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.12.2024 y., 10/24/3593/1084-son. – URL: https://lex.uz/docs/7282737 .

7. Barth M.E., Landsman W.R. How did Financial Reporting Contribute to the Financial Crisis? // European Accounting Review. – 2010. – Vol. 19, No. 3. – P. 399–423. – DOI: 10.1080/09638180.2010.498619.

8. Gebhardt G., Novotny-Farkas Z. Mandatory IFRS Adoption and Accounting Quality of European Banks // Journal of Business Finance & Accounting. – 2011. – Vol. 38, No. 3–4. – P. 289–333. – DOI: 10.1111/j.1468-5957.2011.02242.x.

9. Hashim N., Li W., O’Hanlon J. Expected-loss-based Accounting for Impairment of Financial Instruments: The FASB and IASB Proposals 2009–2016 // Accounting in Europe. – 2016. – Vol. 13, No. 2. – P. 229–267. – DOI: 10.1080/17449480.2016.1210179.

10. Novotny-Farkas Z. The Interaction of the IFRS 9 Expected Loss Approach with Supervisory Rules and Implications for Financial Stability // Accounting in Europe. – 2016. – Vol. 13, No. 2. – P. 197–227. – DOI: 10.1080/17449480.2016.1210180.

11. Leisenring J., Linsmeier T., Schipper K., Trott E. Business-model (Intent)-based Accounting // Accounting and Business Research. – 2012. – Vol. 42, No. 3. – P. 329–344. – DOI: 10.1080/00014788.2012.681860.

12. Fiechter P. Reclassification of Financial Assets under IAS 39: Impact on European Banks’ Financial Statements // Accounting in Europe. – 2011. – Vol. 8, No. 1. – P. 49–67. – DOI: 10.1080/17449480.2011.574409.

13. Glaum M., Klöcker A. Hedge Accounting and its Influence on Financial Hedging: When the Tail Wags the Dog // Accounting and Business Research. – 2011. – Vol. 41, No. 5. – P. 459–489. – DOI: 10.1080/00014788.2011.573746.

14. Maxmudov S.K. Moliyaviy instrumentlarning hisobi va auditini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati: 08.00.08. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, 2024. – URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10000014/GQFtZrvG6VwrsHo.pdf .

15. Kenjebayeva G.R. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy aktivlari turlari hamda ularni tasniflash shartlari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2025. – 5-jild, 6-son. – B. 68–76. – URL: https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/view/1018 .

16. Xolpo‘lotov R.O‘. Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlarni hisobotlarda aks ettirish takomillashtirish // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2024. – 25-jild, 2-son. – B. 206–215. – URL: https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1513 .

17. FASB. Statement of Financial Accounting Standards No. 12: Accounting for Certain Marketable Securities. – Stamford, December 1975.

18. FASB. Statement of Financial Accounting Standards No. 115: Accounting for Certain Investments in Debt and Equity Securities. – Norwalk, May 1993.

19. FASB. Statement of Financial Accounting Standards No. 133: Accounting for Derivative Instruments and Hedging Activities. – Norwalk, June 1998.

20. IASB. IAS 32 Financial Instruments: Presentation [amaldagi tahriri; dastlab IASC tomonidan 1995-yilda qabul qilingan]. – London: IFRS Foundation.

21. IASB. IAS 39 Financial Instruments: Recognition and Measurement. – London, December 2003 [dastlab IASC tomonidan 1998-yil dekabrda qabul qilingan].

22. IASB. IFRS 7 Financial Instruments: Disclosures . – London: IFRS Foundation, 2005.

23. IASB. Reclassification of Financial Assets (Amendments to IAS 39 and IFRS 7). – London, October 2008.

24. G20. Declaration on Strengthening the Financial System. – London, 2 April 2009. – URL: https://www.fsb.org/uploads/london_summit_declaration_on_str_financial_system.pdf .

25. Report of the Financial Crisis Advisory Group. – London; Norwalk: IASB, FASB, 28 July 2009. – URL: https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/groups/fcag/report-of-the-fcag.pdf .

26. IASB. IFRS 13 Fair Value Measurement . – London: IFRS Foundation, 2011.

27. IASB. IFRS 9 Financial Instruments [2026-yil 1-yanvardagi tahriri]. – London: IFRS Foundation, 2014.

28. IFRS Foundation. Post-implementation Review of IFRS 9 Financial Instruments – Classification and Measurement: Project Report and Feedback Statement. – London, December 2022. – URL: https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/project/pir-ifrs-9/pir-ifrs9-feedbackstatement-portrait-dec2022.pdf .

29. IFRS Foundation. Post-implementation Review of IFRS 9 Financial Instruments – Impairment: Project Summary and Feedback Statement. – London, July 2024. – URL: https://www.ifrs.org/projects/completed-projects/2024/post-implementation-review-of-ifrs-9-impairment/ .

30. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida»gi 61-son buyrug‘i (Adliya vazirligida 09.12.2022 y. 3400-son bilan ro‘yxatga olingan; 11.02.2026 y. 331-son va 26.06.2026 y. 384-son buyruqlar bilan o‘zgartirilgan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.12.2022 y., 10/22/3400/1087-son. – URL: https://lex.uz/docs/6312360 .

31. IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London, March 2018.

32. Joint Working Group of Standard Setters. Draft Standard and Basis for Conclusions: Financial Instruments and Similar Items. – London: IASC, December 2000.

33. IASB. Exposure Draft ED/2009/12 Financial Instruments: Amortised Cost and Impairment. – London, November 2009.

34. IASB. Exposure Draft ED/2013/3 Financial Instruments: Expected Credit Losses. – London, March 2013.

35. FASB. Accounting Standards Update No. 2016-13 Financial Instruments – Credit Losses (Topic 326): Measurement of Credit Losses on Financial Instruments. – Norwalk, June 2016.

36. Fitch Ratings. Fitch Rates Uzbektelecom JSC 'BB'; Outlook Stable. – 2025. – 14 November. – URL: https://www.tradingview.com/news/reuters.com,2025-11-14:newsml_FITbjFLMn:0-fitch-rates-uzbektelecom-jsc-bb-outlook-stable/ .

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

